

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA RASMLI MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Namangan Davlat Pedagogika Instituti

Yevropa tillari kafedrası

bakalavr talabasi **Xakimova Feruza Ixtiyor qizi**

E-mail: hakimovaf305@gmail.com

Tel: +998938475722

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda rasmlı ma'lumotlardan foydalanishning samarali usullari tahlil qilinadi. Vizual materiallar yordamida til o'rganish jarayonini yengillashtirish, bolalarda tilga bo'lgan qiziqishni oshirish va darslarning samaradorligini kuchaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada tasviriy yondashuvning afzalliklari, amaliy tavsiyalar va o'qituvchilar uchun foydali metodikalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ingliz tili, vizual materiallar, rasmlı ma'lumotlar, o'rgatish usullari, bolalar ta'limi, ingliz tilini o'rganish, samarali metodlar, didaktik materiallar, tasviriy yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные методы использования наглядной информации при обучении английскому языку учеников начальных классов. Освещается роль визуальных материалов в упрощении процесса изучения языка, повышении интереса учащихся и увеличении эффективности занятий. Также в статье приведены преимущества визуального подхода, практические рекомендации и полезные методики для учителей.

Ключевые слова: Начальные классы, английский язык, визуальные материалы, наглядная информация, методы обучения, детское образование, изучение английского языка, эффективные методы, дидактические материалы, визуальный подход.

Abstract: This article explores effective methods of using pictorial information in teaching English to primary school students. It highlights how visual materials can simplify the language learning process, increase students' interest, and enhance lesson efficiency. The article also presents the advantages of the visual approach, practical recommendations, and useful techniques for teachers.

Keywords: Primary school, English language, visual materials, pictorial information, teaching methods, children's education, learning English, effective methods, didactic materials, visual approach.

Ingliz tili hozirgi kunda jahon miqyosi darajasiga ko'tarilayotgan tillardan biri hisoblanadi. Xalqaro miqyosda aloqalari kengayib borayotgan bu tilni kichik yoshdan o'rganish va o'rgatish samaraliroq hisoblanadi. Ingliz tilini erta yoshdan o'rgatish bolalarda til kompetentsiyasini yaxshi shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik xususiyatidan kelib chiqib ularga darslar qiziqarli va tushunarli hamda o'yinlarga boy qilib tashkil etish muhim. Bu jarayonlarga darsni samarali tashkil etishning yana bir turi rasmlar ma'lumotlaridan foydalanish. Rasm, video, musiqali, she'rlar orqali o'rgatish usullari qiziqarli bo'lganligi sababidan ham boshlang'ich yoshdagi bolalarga tushunish va eslab qolish jarayonlarida foyda beradi. Vizual yondashuv usuli orqali o'quvchilarning e'tiborini jalb qilib dars jarayoniga olib kiriladi. Ularga bir necha misollar keltirsak:

-Kartoshkalar (Flashcards): So'zlarni ko'rsatish jarayonida ularning rasmlari bilan birga qo'llash orqali o'quvchilarning eslarida qoladi.

-Rasmlar hikoyalar: Oddiy matnlarni rasmlar bilan boyitish orqali. Bu usulda berilgan hikoyadagi narsa-buyum hayvonlarning ham nomlari alohida tarzda berib borilsa, o'quvchilar qiziqishi orqali yodlaydi.

-Multimedia vositalari: Video, animatsiya va interaktiv o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini ta'minlab, ular bu usul yordamida ta'laffuzni va suhbatlashishni o'rganishlariga ham yordam beradi.

O'quvchilarni vizual materiallar yordamida dars jarayonlarini tashkil etish davomida ularning materiallari yoshlari jihatida mos bo'lishi lozim. Dars mavzusiga

yo'naltirib ishlangan material samarali bo'ladi. Bularning bari mashg'ulot shaklida tashkil etilsa, o'quvchilarning faolligi oshgan holda natija yaxshiroq bo'ladi.

Rasmlı ma'lumotlardan foydalanish o'quvchilarga o'rganish jarayonida qiziqarli bo'lganligiga, ular o'rganishga osonroq intiladilar. Bu usul til ko'nikmasini shakllantirishda metodikaning yana bir samarali turi. Vizual materiallarni maqsadga muvofiq metodikalar bilan uyg'unlikda tashkil etish orqali darslar o'z natijajasini yaxshiroq beradi. Rasmlı ma'lumotlar bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ingliz tilida berilgan so'zlarni tezroq yodlab olishiga yordam beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, bolalar o'rganishda ko'proq vizual materiallarga tayanganida ma'lumotlarni samaraliroq qabul qiladi va eslab qoladi^[1].

Hozirgi kunda o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini rasmlı ma'lumotlardan bo'lgan bularning yana bir turi komikslar orqali o'rganishga qaratsak, komikslar ya'ni rasmlı hikoyalar orqali tilni o'quvchilarga o'rgatish ham metodikaning yana bir samarali usuli hisoblanadi. Mantli ma'lumotlarni kinoya tarzda keltirib ularni qahramonlarga bo'lish orqali bolalar nafaqat o'qish ko'nikmalariga ega bo'ladi balki, jismoniy tarzda ham harakat qilib dars davomida faol ishtirok etadi. Komikslar o'zining vizual ta'sir kuchi orqali bolalar va kattalarga ham ma'lumotni tezroq qabul qila olishiga yordam beradi. Esab qolishlari osonlashadi. Komikslarda qiziqarli rasm va tasvirlar bo'lganligi uchun ham qiziqarli syujetlar o'rganish jarayonida o'quvchilarni o'ziga jalb qilib turadi. Murakkab tushunchalarni soddaroq va oddiy tilda tushunishga yordam beradi. Chet tilini yangi o'rganayotgan o'quvchilarga turli obrazli ko'rgazma materiallar foyda bergani kabi komikslar ham samarali hisobladi. Komikslarda tilda foydalanadigan kundalik so'zlar, nutq birliklarini qo'lash orqali gramatik tuzilmalar jihatidan va so'z qo'llay olish taraflama ham o'quvchilarga o'z samarasini beradi. Komikslarni o'qish orqali unda ketayotgan mavzu jihatdan o'quvchilarni saval-javob qilish orqali ularning nutqiy faoliyatini ham ko'tarishimiz mumkin. Komikslardan pedagogik vosita sifatida foydalanish o'quvchilar e'tiborini o'ziga tortadigan va so'z boyligini o'zlashtirishni osonlashtiruvchi ko'rgazmali,

¹ Dale E. Audio-visual methods in teaching. Dryden Press. New York-1969-y.

jozibali va matnga boy vositani taqdim etadi. Ushbu metodologiya maqsadli faoliyatni loyihalash, til o'zaro ta'siri va muloqotni rivojlantirish hamda tegishli baholash usullarini qo'llashni o'z ichiga oladi.^[2]

Vizual materiallar o'quvchilarning til o'rganish ko'nikmalarini samarali tarzda oshirishga yordam beradi. O'quvchilarning til o'rganishdagi leksik kompotentsiyasi va o'rganish jarayonidagi samaradorligini ham oshiradi. Vizual materiallar kichik yoshdagi bolalarga chet tilini ayniqsa ingliz tilini o'rgatishda juda ham foydali bo'ladi. Vizual materiallarning ko'plab turlari mavjud. Masalan, rasmlar va flashkartochkalar. Flashkartochkalar va rasmlar kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatishda eng samarali materiallar hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari og'zaki holatda tushuntirgandan ko'ra ko'proq eshitganlarini tushunadilar va eslab qoladilar. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda vizual materiallardan foydalanishning ijobiy jihatlari bor. Bolalarda eshitib eslab qolishdan ko'ra ko'rib eslab qolish xususiyati ko'proq rivojlangan bo'ladi va rasm yoki ko'rishga mo'ljallangan ma'lumotlarni uzoqroq muddat eslab qola olishadi. Rasmlar ma'lumotlar yordamida chet tillarini (ingliz tili) o'rgatishda bolalar so'zlarning ma'nosini bilmagan holatlarida ham uning nima ekanligini anglashadi va bu esa bolalarga tilni yaxshi o'zlashtirishlariga yordam beradi. Vizual materiallar til o'rganishdagi boshqa usul va ko'nikmalarning ham rivojlanishiga imkon beradi. Ular o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va ruhlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishda vizual materiallar (rasmlar va flashkartochkalar) larning ahamiyati katta. Rasmlar va flashkartochkalar bolalarda darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va e'tiborlarini tortishga yordam beradi. Kichik yoshdagi bolalarda ko'rish qobiliyatlari va xotiralari kuchli bo'lganligi sababli, til o'rganishlari sezilarli darajada oshishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ayniqsa kichik yoshdagilar vizual materiallarga ya'ni rasmlar va o'yin tarzida olib boriladigan ma'lumotlarga juda ham qiziqishadi va bu chet tillarini (ingliz tili) o'rganishiga bo'lgan qiziqishini va faolligini oshiradi. Rasmlar qilib berilgan har qanday so'zni bolalar bir zumda anglay oladilar.

² International Journal of Artificial Intelligence, 2024, Vol. 4(03),p.582–587.

Flashkartochkalar asosan o'yin tarzida foydalaniladi va bu bolalarga ko'rish orqali ko'proq so'zlarni yodlab qolishlariga yordam beradi.

Vizual materiallar (rasmlar va flashkartochkalar) bolalar uchun ahamiyatli hisoblanadi, chunki ular tarjimasini bilmagan holatda nima ekanligini anglashga, ko'proq so'zlarni eslab qolishga va umuman chet tillarini (ingliz tili) o'rganishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ingliz tilini o'rgatish jarayonida vizual materiallardan foydalanish samarali o'quv yondashuvi sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasmlar, infografikalar, videodarslar va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu vositalar ayniqsa so'z boyligini kengaytirish, darsga bo'lgan qiziqishni oshirish va og'zaki nutqni shakllantirishda samaradorlikka ega. Masalan, rasimli flashkartalar orqali o'tkazilgan lug'at darslarida talabalar so'zlarni ancha yaxshi eslab qolishgan. Bu ikki xil axborot vizual va og'zaki birgalikda taqdim etilganda o'zlashtirish kuchayishini ta'minlaydi. AR texnologiyalaridan foydalangan holda o'tilgan darslar ham o'quvchilarda yuqori ishtirok va ijobiy munosabat uyg'otgan bo'lsa-da, ularning bilish samaradorligiga ta'siri har doim ham sezilarli emas.

Shuningdek, AR asosidagi mashg'ulotlar, ayniqsa speaking (so'zlashuv) ko'nikmalarini rivojlantirishda, o'quvchilarga haqiqiy muloqotga yaqin tajriba yaratishda foydali bo'lmoqda. Biroq bu kabi texnologik usullarning muvaffaqiyati o'qituvchining tayyorgarligi, o'quv materiallarining sifatli tanlanishi va metodik moslashuv darajasiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, vizual materiallar o'quv jarayonining markaziy vositasi bo'lmasa-da, ular bilimni chuqurroq o'zlashtirish, o'quvchilarni faollikka undash va darsni jonlantirish uchun muhim yordamchi usul sifatida katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar bu vositalardan maqsadga muvofiq va pedagogik ehtiyojlarga mos ravishda foydalanishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dale E. Audio-visual methods in teaching. Dryden Press. New York-1969-y.
2. International Journal of Artificial Intelligence, 2024, Vol. 4(03),p.582
3. Ko, H., & Li, M. The effects of image-based flashcards on vocabulary retention among EFL learners. Asian Journal of Language Teaching, 12(1),2024. 45–67.
4. Alshumaimeri, Y., & Mazher, N. Augmented reality in EFL: A meta-analytic review. Education and Information Technologies, 28(6),2023.p.14209–14229.
5. Mohd Nabil, N. S., Nordin, H., & Ab Rahman, F. Immersive language learning: Evaluating augmented reality filter for ESL speaking fluency teaching. Journal of Research in Innovative Teaching & Learning, 17(2), 2024.p.182–195.
6. Fitayanti, S. (2024). Transforming and evaluating EFL speaking skills with augmented reality: An AR-based module approach. English Review: Journal of English Education, 12(2), 2024.p.833–842.
7. Attygalle, N. T., Kljun, M., Quigley, A., et al. Text-to-image generation for vocabulary learning using the keyword method. arXiv.2025-y.
8. <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1453/2367>